

2025-yil 31-iyul

Yangi loyihalar - yangi imkoniyatlar

2025-YILNING 1-YARMIDA ISHGA TUSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR



✓ Yanvar-iyun oylarida jami 282,4 mln \$ investitsiyalar o'zlashtirildi

✓ Toshkent va Navoiy viloyatlarida qiymati 134 mln dollarlik 5 ta loyiha ishga tushirilib, 220 ta yangi ish o'rne yaratildi.

✓ 17,5 mln \$

Navoiy viloyatida "Texnik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish"

✓ 15,0 mln \$

Chirchiq shahrida "Polietilen plyonkalar ishlab chiqarishni tashkil etish" 15,0 mln doll;

✓ 7,0 mln \$

Chirchiq shahrida "Avtosanoat uchun rezina va o'lchov vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish"

✓ 6,5 mln \$

Olmaliq shahrida "Sulfat kislotasini ishlab chiqarishni tashkil etish"

✓ 88 mln \$

Chirchiq shahrida "Acwa power uks green h2" MCHJ QK tomonidan yashil vodorod ishlab chiqarishni tashkil etish (1-bosqich)"



Joriy yilning birinchi yarmida mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan muhim loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq koxonlarida yanvar-iyun oylarida jami 282,4 million dollar investitsiyalar o'zlashtirildi va reja 100,5 foizga bajarildi.

Ayni damda, Toshkent va Navoiy viloyatlarida 5 ta yirik investitsiya loyihalari ishga tushirildi. Umumiy qiymati 134 million dollarni tashkil etgan ushbu loyihalar nafaqat sanoat salohiyatini oshirdi, balki 220 ta yangi ish o'rnini yaratish imkonini berdi.

- Navoiyda texnik gaz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun 17,5 million dollar sarmoya kiritildi. Bu loyiha mahalliy korxonalarining energetika ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi.
- Chirchiq shahrida bir necha muhim loyihalar amalga oshirildi. Polietilen plyonkalar ishlab chiqarish (15 million dollar), avtomobil sanoati uchun rezina va o'lchov vositalari ishlab chiqarish (7 million dollar) va ekologik toza texnologiyalar asosida yashil vodorod ishlab chiqarish
- (88 million dollar). Yashil vodorod loyihasi mamlakatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari

rivojida muhim qadam bo'lmoqda.

- Olmaliqda esa kimyo sanoatining asosiy mahsulotlaridan sanalgan sulfat kislotasini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, buning uchun 6,5 million dollar sarmoya ajratildi.

Ushbu loyihalar sanoatni modernizatsiya qilish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga yangi investitsiyalar va faol loyihalar mamlakatimizda sanoat salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-loyihalar-yangi-imkoniyatlar>